



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
5-“___” sinf rahbari

_____ning
2023-2024-o'quv yili uchun

SINF SOATLAR
ISH REJASI VA
DARS ISHLANMALARI

Tushuntirish xati

Bolalarimizni birovlarining qoʻliga berib qoʻymasdan, ularni oʻzimiz tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq taʼlimi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2018-yil 5-sentyabrdagi PQ-3931-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorida belgilandi. 2023-2024-oʻquv yilidan boshlab 1-11-sinflarda haftaning juma kunidagi birinchi darsni sinf rahbarlari va tegishli mutahassislar tomonidan “Sinf soati” sifatida oʻtilishi yoʻlga qoʻyildi. **Maʼlumki, sinf rahbari oʻz sinfidagi oʻquvchilarning bevosita taʼlim-tarbiya jarayoni, yaʼni darslar davomida hamda darsdan keyingi faoliyatini nazorat qilishga masʼul shaxs hisoblanadi.**

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida sinf rahbari faoliyati Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taʼlim sohasidagi qarorlari, Xalq taʼlimi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan tegishli meʼyoriy hujjatlar va Xalq taʼlimi vazirligining 2020-yil 30-iyuldagi 180-sonli buyrugʻi 2-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Taʼlim muassasalari sinf rahbari toʻgʻrisida Nizom”** asosida tashkil etildi.

Mazkur dastur va metodik qoʻllanmayuqorida nomlari keltirilgan taʼlimga oid huquqiy va meʼyoriy hujjatlarga, shuningdek, umumiy oʻrta taʼlimning uzluksizligi va izchilligiga, zamonaviy metodologiyalarga asoslangan.

Dasturning maqsadi — Sinf soatlarini mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilgʻor tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda tashkil etish, zamon talablariga javob beruvchi, maʼnaviy barkamol, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Sinf soati dasturining vazifalari:

milliy, umuminsoniy va maʼnaviy qadriyatlar asosida oʻquvchilarni tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

oʻquvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda taʼlim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini taʼminlashdan iborat.

Bugungi kunda axborot oqimining tezligi natijasida hayotimizga ommaviy madaniyatni salbiy taʼsirlari ham sezilmoqda. Bu masalani oʻquvchilarning ijtimoiy hayotlari misolida koʻrishimiz mumkin. Baʼzida ota-onalar tomonidan bolalarning beodoblighi, oʻz fikrini ogʻzaki yoki yozma tarzda aniq ifodalay olmasligi, masʼuliyatning yetishmasligi, atrofidaqilar bilan kelisha olmasligi, oʻziga tegishli boʻlgan mablagʻlarni toʻgʻri taqsimlay olmasligi haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. SHuning uchun ham dasturni ishlab chiqishda xaqlaro va milliy tajribaga asoslanilganligini alohida taʼkidlab oʻtish joizdir.

“Taʼlim muassasalari sinf rahbari toʻgʻrisida Nizom”ga asosan “Sinf rahbari - Taʼlim muassasasining Sinf soati tizimidagi tayanch pedagoglardan biri boʻlib, oʻziga birlashtirilgan sinf oʻquvchilarining amalda belgilangan taʼlim va tarbiya olishlarini tashkil etadi.”SHu nuqtai nazardan olib qaraganda bugungi kunda taʼlim muassasalari **sinf rahbarlari faoliyatida quyidagilarga oʻxshash muammolar koʻzga tashlanmoqda:**

- Ayrim sinf rahbarlari tomonidan oʻquvchilarni tarbiyalash jarayonida oʻz oldilariga qoʻygan maqsad va vazifalarining toʻgʻri tashkil etilmaganligi;
- Sinf soatlarining aniq oʻquv-mavzu reja asosida tashkil etilmayotganligi;
- Taʼlim-tarbiya va maʼnaviy-maʼrifiy sohaga oid qonunlar va qonunosti hujjatlarning koʻpchiligidan oʻqituvchi va sinf rahbarlarining yetarli darajada xabardor emasligi;
- Baʼzi sinflardagi muhitning qoniqarli emasligi, ahil va mustahkam jamoaning shakllanmaganligi;
- Ayrim taʼlim muassasalarida davomatning pastligi, muntazam dars qoldiruvchi oʻquvchilar mavjudligi;
- Baʼzi sinflardagi oʻquvchilarda kundalik daftarlarining mavjud emasligi, borlarining ham sinf rahbari tomonidan nazorat qilinmaganligi;
- Ayrim oʻquvchilarning darslarga tayyorgarliksiz, hatto darsliklarsiz ishtirok etishlari;
- Oʻquvchilar internet va mobil telefon qaramligining jismoniy va ruhiy xatarlari haqida yetarli tushunchalarga ega emasliklari;
- Voyaga yetmaganlar oʻrtasida turli zararli oqimlar taʼsiriga tushib qolish, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarining uchrayotganligi;
- Oʻquvchi tarbiyasida muhim oʻrin tutadigan kompetensiyalarga erishilmaganligi;

- Baʼzi oʻqituvchi va tarbiyachilarimizda kasbiy kompetensiyalar yetishmasligi;
- Sinf soati ishlar taʼsirchanligining pastligi;
- Ota-onalar bilan samarali muloqotning yoʻlga qoʻyilmaganligi;
- Huquqbuzarlik, mobil telefon va internet qaramligi, narkomaniya, tamaki va alkogol mahsulotlarini isteʼmol qilishga qarshi kurash hamda oldini olish boʻyicha samarali chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilmaganligi.

Shu oʻrinda masalaning muhim bir jihatiga eʼtiboringizni qaratmoqchimiz. **Bugungi kunda umumtaʼlim maktablarida Sinf soatilar amalda qanday tashkil qilinmoqda?**

- Bugungi kundagi aksariyat hollarda Sinf soatilar quruq gaplardan iborat boʻlib, Sinf soati mavzularidan chetga chiqib ketiladi;
- Qaysidir oʻquvchining xulqi muhokamaga qoʻyiladi;
- Oʻquvchilarning fanlarni oʻzlashtirishlari va davomatlari muhokama qilinadi;
- Qandaydir tadbirlarga tayyorgarlik va sinf muammolarini hal etish kabi masalalar xususida soʻz boradi.

Sinf soatilar qanday boʻlishi kerak?

- Taʼlim jarayoni alohida, mustaqil darslardan tashkil topgani kabi Sinf soatilar ham yaxlit Sinf soati usullar, taʼsirchan vositalar yordamida amalga oshiriladi.
- Sinf rahbari ushbu tadbirlarni oʻtkazishga doir aniq ish rejasiga ega boʻlishlari lozim.

Bugungi shiddatli davr barchamizdan axloqiy va maʼnaviy jihatdan Sinf soati ishlarni yanada kuchaytirish lozimligini talab etmoqda. Maʼnaviyat yoʻq ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs boʻla olmaydi. SHuning uchun ham sinf rahbarlari va butun oʻqituvchilar jamoasi oldida oʻquvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida hayot kechirishni oʻrgatishdek muhim vazifa turadi. Hozirgi globallashuv jarayonlari kuchaygan, turli gʻoyalar oʻrtasidagi kurash keskinlashgan, “ommaviy madaniyat” xurujlari butun dunyoga tarqalib borayotgan, internet tarmogʻi orqali uzatilayotgan buzgʻunchi axborotlar inson qalbi va ongini oʻziga qaram qilishga urinayotgan tahlikali zamonda kelajagimiz boʻlgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan.

Sinf soati ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi boʻlgan barcha gʻoyalar qaytadan koʻrib chiqilishi, asosiy eʼtibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida toʻplangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. Inson shaxsining kamol topishi esa juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, doʻstlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, internet, ommaviy axborot vositalari, sanʼat, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita taʼsir koʻrsatadi. SHuning uchun ham barcha sinf rahbarlari oʻz Sinf soati faoliyatlarida ana shu mezonlarni hisobga olishlari shart.

Sinf soatilar oʻquvchilarda shakllangan tayanch kompetensiyalarni amaliyotga tadbiiq etish maydoni hisoblanadi. Toʻgʻri tashkil etilgan Sinf soatilar oʻquvchilarda fanlar orqali shakllangan tayanch kompetensiyalarni ijtimoiy hayotda tadbiiq eta olishlari uchun imkoniyat yaratib beradi.

Oʻquvchilarda hulq-odob madaniyatiga rioya qilish, fikrini erkin ifodalash, notiqlik qobiliyatini yuksaltirish, axborotlardan toʻgʻri va samarali foydalanish, shu bilan birga bu boradagi xalqaro hamda milliy qonunchilik qoidalariga rioya qilishni tarbiyalash Sinf soatilarining asosiy maqsadlaridan birdir. SHuningdek, Sinf soatilar orqali oʻquvchilarda toʻgʻri kasb tanlash, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, boʻsh vaqtini toʻgʻri taqsimlash, oʻz iqtidorini rivojlantirish uchun turli toʻgaraklarni toʻgʻri tanlash, tayyor ish joylarida ishlash emas, balki oʻzi ish joylarni yaratishi kabi qobiliyatlar shakllantiriladi.

Umumtaʼlim maktablarining 1-11-sinf oʻquvchilari uchun tuzilgan “Sinf soatilar uchun namunaviy mavzular rejasii” mazmunan Sinf soati-axloqiy hislatlarni shakllantirish bilan bir qatorda yurtimizda nishonlanadigan umumxalq bayramlari va muhim tarixiy sanalar asosida tuzildi. Bundan tashqari mazkur rejada fan oyliklari davomida oʻquvchilar uchun Sinf soati dars soatlarini oʻtishda nimalarga eʼtibor berish kerakligi eʼtiborga olingan.

Mazkur dastur va qoʻllanmada bugungi kunda sinf rahbarlari uchun amaliy va uslubiiy yordam sifatida Respublika Taʼlim markazi mutaxassislari va amaliyotchilar hamkorligida “Sinf soati”larning mashgʻulot ishlanmalari tavsiiya etiladi.

“Sinf soati”lar rejasidagi 8 soatlik “Yoʻl harakati qoidalarii”ga doir mavzular dasturi va dars ishlanmalari mazkur qoʻllanmada aks ettirilmagan.

Umumtaʼlim maktablarining oʻquvchilari uchun ishlab chiqilgan “Sinf soati” mashgʻulot ishlanmalarida mazmunan oʻquvchilarda Sinf soati-axloqiy xislatlarni shakllantirish va mustahkamlash maqsadida donolar hikmatlariga va milliy qadriyatlarimizga hurmat, vatanparvarlik, insonparvarlik, jismoniiy tarbiya, shaxsiiy gigiyena, ozodalik, kiyinish odobi, bola huquqlari, tabiatni asrash, iqtisodiiy tarbiya, salomlashish va muomala odobi, kitobni sevish kabilar bilan bir qatorda yurtimizda oʻtkaziladigan umumxalq bayramlari va muhim sanalarni nishonlashda nimalarga eʼtibor berish lozimligi toʻgʻrisida tavsiiyalar berilgan.

Sinf soatilarini quyidagi tartibda tashkil qilish mumkin:

Kun shiori:

I. Kirish;

II. Asosiy qism: hikoya, suhbat, ma'ruza, guruhlarda ishlash;

III. Yakuniy qism.

Sinf soatlarida foydalanish uchun mavzuga doir adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etiladi. Jarayonni ochiq muloqot, davra suhbat, bahs-munozara, treninglar va boshqa har xil noan'anaviy tarzda tashkil etish mumkin.

(Izoh: Taqdim etilayotgan Sinf soatlar dasturiga Umumta'lim maktablarining sinf rahbarlari metod kengashi qaroriga ko'ra 15 % gacha o'zgartirish kiritilishi mumkin.)

“Sinf soati” mashg‘ulotlarining 2023-2024-o‘quv yili uchun o‘quv-mavzu rejasi
5–SINF

№	O‘tiladigan mavzular	Soat	Rejada	Amalda
1	Taraqqiyot odimlari	1		
2	Ona tabiyatni asraylik (Butunjahon yovvoyi tabiat jamg‘armasi tashkil topgan kun topgan kun munosabati bilan)	1		
3	Obodlik ko‘ngildan boshlanadi.	1		
4	Jahonda bo‘lmasa muallim agar, hayot ham bo‘lmasdi go‘zal bu qadar (1- oktabr – O‘qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan)	1		
5	Sog‘lom turmush tarsi va zararli odatlarning oldini olish	1		
6	Ona tilim - davlat tilim (O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
7	Transport vositalarining harakati (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
8	Jamoa bo‘lish zavqi (Team building – jamoaviylikni shakllantirish)	1		
9	Yo‘l chiziqlari va ularning vazifalari.(Yo‘l harakati qoidalari)	1		
10	Ilm va zakova tushunchasi	1		
11	Bayrog‘imiz – faxrimiz, g‘ururimiz (18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
12	Yo‘l harakati qoidalaridagi asosiy tushuncha va atamalar (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
13	Huquqiy madaniyat – komil inson belgisi (8-dekabr – Konstitutsiya qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
14	Madhiyam faxrim mening (10-dekabr - O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kun munosabati bilan).	1		
15	Tartibga soluvchining ishoralari (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
16	Yangi yilda yangi orzular! (Yangi yil bayrami yaqinlashishi munosabati bilan).	1		
17	Tinchlik va osoyishtaligimiz garovi (14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan).	1		
18	Chiroyli hulq-inson ziynati	1		
19	Yo‘l harakati qoidalari nima uchun kerak? (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
20	Inson qalbining quvonch-u qayg‘usi kuychisi (G‘azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
21	Vatan sog‘inchi ila yashagan siymo (Shoh va shoir Z.M.Bobur tavallud topgan kun munosabati bilan)	1		
22	Ilmli kishi xor bo‘lmas	1		
23	Tejamkorlik – farovonlik manbai.	1		
24	Har doim sog‘ bo‘lsin onam! (8 mart – Xotin-qizlar kuni munosabati bilan).	1		
25	Sport-sog‘lik garovi	1		
26	Navro‘z – mehr-oqibatni ulug‘lovchi qadriyat (21-mart – Navro‘z bayrami munosabati bilan).	1		
27	Amir Temur – komillik namunasi (Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun munosabati bilan).	1		
28	Mehnatdan kelsa boylik-turmush bo‘lar chiroylik	1		
29	Maxsus avtomobil va mototsikllar haqida suhbat (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
30	“Qahramonlik, burch va fidoiylik (Xotira va qadrlash kuni oldidan).	1		
31	Birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish (Yo‘l harakati qoidalari).	1		
32	Kitobdan yaxshi do‘st bo‘lmas.	1		
33	Buyuruvchi belgilar (Yo‘l harakati qoidalari)	1		
34	Yoz-o‘tadi soz!	1		

Sana: “ ” _____ 20 __-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

1-Mavzu: Taraqqiyot odimlari

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: o‘quvchilarga mustaqillik bayrami va uning mazmun mohiyatiga oid bilimlar berish.

Yosh avlod qalbida vatanparvarlik tuyg‘ularini o‘stirish. Mustaqillik, erkinlik, O‘zbekiston muqaddas makon, Vatanga hurmat, qadriyatlarni ulug‘lash, o‘zlikni anglash tuyqularini shakllantirish. O‘quvchilarni mustaqillik, erk va vatanparvarlik haqidagi dunyoqarashlarini o‘stirish.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi: televizor, radiyo, telefon orqali berilgan xabarlarini gapirib bera olish.

O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi: kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarga o‘zini tuta bilish.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi: milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o‘zi yashab turgan tarixiy obidalarni bilish va bir-biridan farqlash.

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tkazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

1-savol. Ushbu rasmlardan foydalanib, mustaqillik so‘ziga izoh berishga harakat qiling (1-rasm, O‘zbekistonda ishlab chiqilgan mahsulotlar, maktab va o‘quvchilari, ekin maydonlari, tarixiy obidalar, bayram tantanalarining rasmi)

O‘quvchilarning javoblarini o‘qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Mustaqillik - bizga nafaqat iqtisodiy imkoniyatlar, balki ma'naviy tiklanish imkoniyatini ham berdi. Biz mustaqil davlat sifatida o‘zimizning ichki va tashqi siyosatimizni belgilab oldik. Mustaqillik tufayli unutilayotgan qadriyatlarimiz tiklandi, sayqal topdi. Mustaqillik bu eng avvalo huquqdir. Ya'ni ushbu so‘zning zamirida katta va ulug‘ huquqqa ega bo‘lish degan tushuncha mujassam.

2-savol. deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilarning javoblarini o‘qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Biz mehr va muhabbatni, sadoqat va fidoiylikni munis onalarimizdan, bebaho Vatanimizdan olamiz.

Uning baxtu saodati, yorug‘ istiqboli, farovon kelajagi uchun yashash, kurashish, kerak bo‘lsa, jonini fido qilish shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson uchun baxtdir.

3-savol. Nima uchun “Tinchlik uchun kurashmoq kerak” deyiladi? Hech o‘ylab ko‘rganmisiz?

O‘quvchilarning javoblarini o‘qituvchi umumlashtiradi va ushbu savolga quyidagicha xulosa qiladi.

Biz uchun, yurtimiz uchun tinchlik va osoyishtalik hamma narsadan qadrlri, tinchlik uchun kurashish, bu hayotni o‘zimiz himoya qilishimiz kerak. Himoya degani - avvalo, ogoh bo‘lish degani. Hushyorlik ogoh bo‘lib yashash - bu kundalik yoki bir oylik mavsumiy masala emas, balki, kundalik ish, kundalik harakat bo‘lishi lozim.



III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “ ” _____ 20 __-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

2-mavzu: Ona tabiatni asraylik (Butunjahon yovvoyi tabiat jamgʻarmasi tashkil topgan kun topgan kun munosabati bilan)

I. Kirish:

Sinf soati mashgʻulotning maqsadi: Oʻquvchilarga fan oylikda eʼtiborni kuchaytirish, qalbida tabiatga mehr-muhabbat uygʻotish, uni kelgusi avlodlarga sogʻlom holda yetkazish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini, tabiatni asrab-avaylash tuygʻularini ular ongiga singdirish.

Natija: Oʻquvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

Kommunikativ kompetensiya — muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantiradi

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi — media madaniyatga ega boʻlish layoqatlarini shakllantiradi

Mashgʻulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noanʼaviy, ananaviy.

Mashgʻulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, koʻrgazmali va boshqalar.

Mashgʻulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “koʻrsam tezroq oʻrganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashgʻulot jihozi: mavzuga oid rasm, koʻrgazmalar va tarqatma materiallar, oʻquv qurollari, elektron materiallar.

Mashgʻulotning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani soʻrash:

a) Savol – javob oʻtkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

Oʻqituvchi: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida “Yer, yer osti boyliklari, suv, oʻsimlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir” deyiladi.

Maʼlumki, inson tabiatga beparvo, boʻlib unga gʻamxoʻrlik qilmasa, ekologiya buziladi, hayvonot dunyosi qiriladi. Shu bois goʻzal va betakror tabiatni ardoqlash uni koʻz qorachigʻiday asrash, tabiat neʼmatlaridan oqilona foydalanish ham farz ham qarzdur.

Insonning tabiatga notogʻri munosabati natijasida koʻplab oʻsimlik va hayvonlar yoʻqolib ketdi va bugun ham yoʻqotishlar davom qilmoqda.

“Tabiat - tiriklik sharti”- Shunday ekan, tabiatga befarq qaramasligingiz lozim.

Inson tabiatni qoʻriqlash barobarida mamlakatimiz rivojiga hissa qoʻshadi. Shunday ekan, oʻquvchilar qalbida tabiat neʼmatlarini – boyliklarini qoʻriqlash, ularni avaylab asrash hislarini rivojlantirish, tabiatga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash oʻqituvchilardan chuqur bilim, izlanish va ijodkorlikni talab qiladi.



Topshiriq: Guruhlarga tabiatga oid soʻzlardan “Guldasta” tuzish mashqi qoʻllanadi.

Izoh: Oʻqituvchi jarayonni kuzatishda samimiylikka, oʻquvchilarning oʻzlarini odob-axloq meʼyorlariga eʼtiborli boʻlishlikka, faollikka va jonkuyarlikka undab boradi.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida oʻquvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. Oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.

Maktab MMIBDOʻ _____ sana _____ 20 __yil

Sana: “ ” _____ 20 __-yil. Sinfi: _____ Sinf rahbari: _____

3-mavzu: Obodlik ko‘ngildan boshlanadi

I. Kirish:

Sinf soati mashg‘ulotning maqsadi: O‘quvchilarda vatanparvarlikni singdirish, atrof-muhitga bo‘lgan mehrlarini va qiziqishlarini rivojlantirish.

Natija: O‘quvchilarning erkin fikrlashi, tassurotlari va olgan xulosasi.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi — doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma‘naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayoti davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallaydi

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi — jamiyatda bo‘layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, va huquqiy madaniyatga ega bo‘lish layoqatlarini shakllantiradi

Mashg‘ulot turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi, amaliy, nazariy, aralash, noan‘aviy, ananaviy.

Mashg‘ulot uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, ko‘rgazmali va boshqalar.

Mashg‘ulot metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman”, “muammo va yechim” shu kabi metodlar.

Mashg‘ulot jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Mashg‘ulotning borishi:

Tashkiliy qism:

a) Salomlashish.

b) Davomatni aniqlash.

Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tkazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

II. Asosiy qism:

O‘qituvchi:

Tabiat shunday odil mo‘jizaki, atrof-muhitni muvozanatga keltiradi. Chunonchi, chiqarilgan karbonat angidridni o‘simliklar yutib, uni kislorodga aylantiradi. Demak, o‘simliklar dunyosi, ramziy ma‘noda aytganda, havoni chang va karbonat angidrididan tozalab beruvchi bebaho vositadir. Bundan inson o‘z atrofini o‘rab turgan tabiatni, uning o‘simliklar dunyosini ko‘z qorachig‘iday asrabgina qolmay, uni boyitishi, qo‘lidan kelganicha ko‘proq daraxt ekishi, ko‘kalamzorlashtirishga intilishi zarur degan xulosa kelib chiqadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz daraxt ekish, bog‘-rog‘ yaratishni savobli ish deb bilishgan. Bir tup mevali daraxt ekan kishining ikki dunyosi obod bo‘ladi, deb bejiz aytishmagan.

Inson ehtiyoji uchun zarur bo‘lgan suv, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak ham tabiatdanolinadi, hattoki insonning xastalikdan qutulishi, salomatligini tiklash uchun zarur bo‘lgan dori-darmonlar ham ona tabiatda yetishgan mevalar, turli giyohlar va ziravorlardan tayyorlanadi. Inson tanasida birorta ortiqcha a‘zo bo‘lmaganiday, tabiatda ham ortiqcha yaratilgan birorta narsa yo‘q. Ularning hammasi hayot uchun zarur.

Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan har bitta atrof-muhitni tozalash va obodonlashtirish bo‘yicha amaliy ishlar qilinmoqda.

Bu yo‘nalishda tanlovlar olib borilmoqda.



Topshiriq: “Obod mahalla” munosabati bilan yurtimizda qanday bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda? degan savolga o‘quvchilar respublika bo‘yicha va o‘zlari yashayotgan hududlari bo‘yicha javob beradilar.

Izoh: O‘qituvchi jarayonni kuzatishda samimiylikka, o‘quvchilarning o‘zlarini odob-axloq me‘yorlariga e‘tiborli bo‘lishlikka, faollikka, jonkuyarlikka va talabchanlikka, tezkorlikka, ijodkorlikka undab boradi.

III. Yakuniy qism:

Dars yakunida o‘quvchilar bilan birgalikda olgan bilimlarni umumlashtirilib, savollar bilan mustahkamlanadi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20 __yil

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Hujjat Word variantda beriladi.

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

39 listdan iborat 5-sinf o'quvchilarga Sinf soatini to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.